

O'zbekistonda chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-iyun oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. Chakana savdo tovar aylanmasi
- II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi
- III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasi
- IV. Uslubiy ma'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar


I. Chakana savdo tovar aylanmasi

2026-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, chakana savdo sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **89 861** tani tashkil etdi. Shundan faoliyatdagi yirik korxonalar soni **432** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni esa **89 429** tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, O'zbekistonning chakana savdo tovar aylanmasi **251 756,4** mlrd so'mga yetib, 2025-yilning mos davriga nisbatan real hisobda **20,2** foizga oshdi. Yirik korxonalarning tovar aylanmasi **49 629,3** mlrd so'mni (real hisobda o'sish sur'ati – **130,0** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariniki esa **173 343,8** mlrd so'mni (real hisobda o'sish sur'ati – **115,9** %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari

2026- yil yanvar-iyun oylari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
Chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (oylik)

**Chakana savdo hajmida yirik korxonalar, kichik biznes
va xususiy tadbirkorlikning ulushi bo'yicha dinamikasi**
yanvar-iyun oylari



II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra, ulgurji savdo sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **56 363** tani tashkil etib, shundan **426** tasi yirik korxonalar, **55 937** tasi esa kichik korxonalar va mikrofirmalardir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekistonning ulgurji tovar aylanmasi hajmi **283 334,7** mlrd so'mga yetgan va 2025-yilning mos davriga nisbatan real hisobda **16,5** foizga oshgan.

Yirik korxonalarning ulgurji savdo aylanmasi **90 214,4** mlrd so'mni (real hisobda o'sish sur'ati – **137,1** %), kichik tadbirkorlik subyektlarining savdo aylanmasi esa **193 120,3** mlrd so'mni (real hisobda o'sish sur'ati – **108,9** %) tashkil qildi. Respublikaning umumiy ulgurji savdo hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **68,2** % ga teng bo'ldi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi
2026- yil yanvar-iyun oylari, mlrd so'm



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
Ulgurji savdo hajmi (oylik)

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmining o'sish sur'atlari

2026- yil yanvar-iyun oylari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati (oylik)


III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasi

2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra, umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **29 204** ta bo'lgan. Shulardan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **148** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni esa **29 056** tani tashkil qilgan.

2026-yilning yanvar-iyun oylarida umumiy ovqatlanish korxonalarining tovar aylanmasi **126 755,8** mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan real hisobda **12,1** foizga oshdi. Bunda tovar aylanmasining **76,7** foizi kichik tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, yirik korxonalarning ulushi **23,3** foizni tashkil etdi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati dinamikasi

2026- yil yanvar-iyun



IV. Uslubiy ma'lumotlar

Ulgurji va chakana savdo aylanmasi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda ulgurji va chakana savdo korxonalari va tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, "2008-yilgi milliy hisoblar tizimi (MHT-2008)", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008 y.), "Chakana savdo aylanmasini statistik kuzatish va uning fizik hajm indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar" (MDH Statistika qo'mitasi, 2011-y.) kabi xalqaro qo'llanma va tavsiyalardan foydalanilgan.

Ulgurji va chakana savdo aylanmasi statistikasi norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash natijalarini inobatga olgan holda hisoblanadi.

Ayrim hollarda yakuniy qiymat va qo'shiluvchilar yig'indisi o'rtasidagi kichik farqlar ma'lumotlarning yaxlitlanishi bilan izohlanadi.

V. Aloqador boshqa havolalar

Ulgurji savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)

Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

Chakana savdo aylanmasi hajmi (hududlar kesimida, oylik)

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)

Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)

Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

Tayyorlash uchun mas'ul:
*Xizmatlar sohasi statistikasi
boshqarmasi*

Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63.
Elektron pochta: info@stat.uz
Tel.: 71-203-80-00 (1280, 1290)

